

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 351 sahifa.
2025-yil, noyabr*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqyo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA BYUDJET-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA

Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li

ISFT instituti magistranti

Email: rahmatullaevsarvar228@gmail.com

Abdukarimova Muborak Sharaf qizi

ISFT instituti magistranti

Ilmiy rahbar:

Madrakhimova R. G.

p.f.f.d. (D. Sc.), ISFT instituti

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy iqtisodiyotning insonni asta-sekin chetga surayotgan jihatini o'rgandi. Inson ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iqtisodiy tizim vaqt o'tishi bilan insonni maqsad emas, balki vositaga aylantirib bormoqda. Adam Smit, Karl Marks, Erich Fromm, Amartya Sen, Tomas Piketti va Yuval Noah Harari qarashlari asosida maqola iqtisodiy tafakkur evolyutsiyasini yoritadi, uning axloqiy poydevorlaridan tortib, axborot insonning o'zidan ustun qo'yilayotgan raqamli davrgacha bo'lgan jarayonni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: inson, iqtisodiyot, qadriyatlar, kapitalizm, gumanizm, tengsizlik, rivojlanish.

Abstract. This article investigates an aspect of current economics that is gradually marginalizing the human being. With human needs in the center of its rationale, the economic system is slowly but surely transforming the individual into a means rather than an end. Through the works and thoughts of Adam Smith, Karl Marx, Erich Fromm, Amartya Sen, Thomas Piketty, and Yuval Noah Harari, this article outlines the journey of economic thoughts, from its moral underpinnings to the digital age, where information rather than the human being has become the main value.

Keywords: human being, values, capitalism, humanism, inequality, development.

Аннотация. В данной статье исследуется аспект современной экономики, который постепенно отодвигает человека на периферию. Экономическая система, изначально направленная на удовлетворение человеческих потребностей, со временем все больше превращает индивида в средство, а не в цель. Опираясь на идеи Адама Смита, Карла Маркса, Эриха Фромма, Амартии Сена, Томаса Пикетти и Юваля Ноя Харари, статья прослеживает эволюцию экономической мысли, от ее моральных оснований до цифровой эпохи, в которой главным ресурсом становится информация, а не сам человек.

Ключевые слова: человечность, ценности, капитализм, гуманизм, неравенство, развитие.

KIRISH

Bugungi kunda iqtisodiyot endi faqat ishlab chiqarish va iste'mol haqidagi fan emas, balki jamiyat o'zining muvaffaqiyat, taraqqiyot va hatto hayot haqidagi tasavvurlarini ifodalaydigan asosiy vositalardan biriga aylangan. Baxtni esa YalM o'sishi, foyda samaradorligi va insonning bozor uchun qanchalik zarurligi orqali o'lchaymiz. Ammo savol tug'iladi: iqtisodiy rivojlanish jarayoni qanday davom etadi, inson o'zining betakror tabiatini yo'qotadimi? Iqtisodiy tafakkur rivoji XVII asrda yuzaga kelgan voqealarning aksini ko'rsatadi. Hozirgi texnologiyalar va raqamli kapital davrida bu tushunchalar avtomatlashtirish va daromadlar tengsizligi orqali yana o'ylashga majbur qilmoqda. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi iqtisodiyotda inson qadriyatini tushunish evolyutsiyasini ko'rsatishdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Insoniyat va moddiy qadriyatlar o'rtasidagi muvozanat masalasi iqtisodiy tafakkurda doimo muhim o'rin egallagan. Adam Smit o'zining "Axloqiy tuyg'ular nazariyasi" (1759) asarida axloqiy asoslarsiz barqaror jamiyat mavjud bo'la olmasligini ta'kidlagan. Smitning fikricha, iqtisodiy tizim faqat shaxsiy foydaga emas, balki hamdardlik, o'zaro hurmat va adolat hissiga tayanmog'i lozim. Aks holda bozor muvozanatini yo'qotadi, inson esa o'z mehnatining ma'nosidan ayriladi.

Karl Marks bu masalani kapitalistik model tanqidida yanada chuqurlashtirgan. U “Iqtisodiy-falsafiy qo‘lyozmalar” va “Kapital” asarlarida kapitalizmning asosiy xususiyati — insonni mehnatidan ajratish, uni hayoti va individualligi bilan birga tovar qiyofasiga keltirish ekanini ko‘rsatadi. Insoniy faoliyatning tovarlashuvi har bir davrda beqarorlik va ma‘naviy bo‘shliqni yuzaga keltirishi Marks fikrlarida ta‘kidlangan. Bu masala turli davrlarda boshqa mutafakkirlar, jumladan Avgustin tomonidan ham axloqiy nuqtayi nazardan izohlangan.

XX asrning ikkinchi yarmida Erich Fromm “Egalik qilishmi yoki mavjud bo‘lishmi?” degan fundamental savolga qaytdi. U o‘zining “Haben oder Sein” (1976) asarida ikki turdagi hayot shaklini tahlil qilib, zamonaviy dunyoda hanz davom etayotgan, ammo turlicha ko‘rinish olgan ustunlik hayoti hamda insonning o‘z mohiyatini anglashga yo‘naltirilgan hayot o‘rtasidagi ziddiyatni yoritadi. Zamonaviy inson iste‘mol jamiyatida yashaydi, bu jamiyatda hayot mazmuni gadjetlarni yangilash bilan o‘lchanadi. Bunday muhit sevgi, ijodkorlik va axloqiy o‘sish imkoniyatlarini cheklaydi. Frommning fikricha, haqiqiy taraqqiyot insonning “egalik qiluvchi” emas, balki “mavjud bo‘luvchi” sifatida o‘zini namoyon qilishi va mehr-muruvvat qobiliyatini rivojlantirishidir.


XXI asrda bu mavzuni Tomas Piketti davom ettirdi. Uning “Capital in the Twenty-First Century” (2013) asarida boylikning ozchilik qo‘lida to‘planishi ijtimoiy adolatdan keskin uzoqlashgan holatga olib kelgani ko‘rsatiladi. Piketti adolatsiz daromad taqsimoti nafaqat iqtisodiyot barqarorligini, balki jamiyatdagi ishonch, birdamlik va fuqarolik mas‘uliyatining ham zaiflashishiga sabab bo‘lishini ta‘kidlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada tadqiqot sifat va qiyosiy tahlil usullariga asoslanadi. Bozor va ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot modellari inson qadriyati, sog‘liqni saqlash va tenglikka ta‘siri bo‘yicha solishtirildi. Asosiy manbalar sifatida ilmiy adabiyotlar, xalqaro hisobotlar va iqtisodiy nazariyalar tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyot ikki qarama-qarshi nuqtayi nazardan tahlil qilinishi mumkin: bozor samaradorligi va insonparvar qadriyatlar. Bir tomondan, kapitalizm tarix davomida boylik, texnologik rivojlanish va innovatsiyalarning asosiy manbai bo‘lib kelgan. Biroq boshqa tomondan, aynan kapitalizm doirasida tengsizlik, ijtimoiy yakkalanish va mehnatning insoniy jihatining qadrsizlanishi eng yaqqol namoyon bo‘lmoqda (1-rasm).



1-rasm. Tengsizlik va sog‘liqni saqlash o‘rtasidagi bog‘liqlik


Grafikda 2010–2022-yillar oralig‘ida Gini indeksi va sog‘liqni saqlash xarajatlari o‘rtasidagi teskari yo‘nalishdagi dinamik o‘zgarish kuzatiladi. Ma‘lumotlarga ko‘ra, Gini indeksi 2010-yildagi 38 birlikdan 2022-yilda 44 birlikka ko‘tarilib, daromadlar tengsizligining oshganini ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, YAIMdagi sog‘liqni saqlash xarajatlari ulushi 8 foizdan 7,2 foizgacha qisqargan. Ushbu qarama-qarshi trend sohaning moliyalashtirish darajasi pasaygani sharoitida aholining sog‘liq xizmatlariga kirish imkoniyatlari ham noqulaylashayotganini anglatadi. Nazariy jihatdan, sog‘liqni saqlashga kam investitsiya kiritilishi tengsizlikni



yanada kuchaytiradi, chunki past daromad guruhlari pretsedent xarajatlarni o'z zimmasiga ololmaydi. Grafik shuni ko'rsatadiki, barqaror sog'liq siyosati ijtimoiy tenglikni yumshatish bo'yicha muhim omil bo'lib, uning qisqarishi esa iqtisodiy farqlarni chuqurlashtiradi. Bu holat davlat byudjetida sog'liqni saqlashning ustuvorligini qayta ko'rib chiqish zaruratini ko'rsatadi.

Eng e'tiborga molik sohalaridan biri sog'liqni saqlashdir. AQShda sog'liqni saqlashning bozor modeli shundayki, sifatli tibbiy xizmatdan foydalanish darajasi bemorning daromadiga bog'liq bo'ladi. Sog'liq iste'mol tovariga aylanadi, inson hayoti esa moliyaviy investitsiya sifatida baholanadi.

Aksincha, Skandinaviya kabi ijtimoiy mas'uliyatga ega iqtisodiyotlarda sog'liqni saqlash va ta'lim umumiy boylik, ya'ni har bir inson uchun mo'ljallangan ijtimoiy ne'mat sifatida talqin qilinadi (2-rasm).




2-rasm. Kapitalistik va gumanistik modellarda inson kapitali

Grafik kapitalistik va gumanistik rivojlanish modellarini taqqoslashda inson kapitalining uchta asosiy komponenti — ta'lim, sog'liq va ijtimoiy ishonch — o'rtasidagi farqlarni aniq ko'rsatadi. AQShda ta'lim (70%) va sog'liq (65%) ko'rsatkichlari nisbatan yuqori bo'lsa-da, ijtimoiy ishonch darajasi 40% atrofida qolmoqda. Bu kapitalistik modelda individual muvaffaqiyat va bozor raqobati ustuvorligi fonida ijtimoiy ishonchning past shakllanishi bilan izohlanadi. Aksincha, Norvegiya, Shvetsiya va Finlyandiya kabi gumanistik davlatlarda barcha indikatorlar — 85–95% diapazonda — barqaror yuqori. Ayniqsa, sog'liq va ta'lim tizimlarining yuqori qamrovi bilan birga ishonchning 80% dan yuqori darajada bo'lishi keng ijtimoiy birdamlik, adolatli resurs taqsimoti va samarali davlat xizmatlarining mavjudligiga ishora qiladi. Ushbu taqqoslash shuni ko'rsatadiki, gumanistik model inson kapitalining sifatini faqat iqtisodiy o'sish emas, balki ijtimoiy muhitning mustahkamligi orqali ham oshirishga qodir. Natijada, bu mamlakatlarda farovonlikning barqarorligi yuqori darajada ta'minlanadi.

Ushbu yondashuvda butunlay yangi qarash ilgari suriladi: inson foyda keltiruvchi manba emas, balki ijtimoiy taraqqiyotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu farq nafaqat iqtisodiy, balki falsafiy qarashlarda ham o'z aksini topadi. Bozor mantiqi raqobat va shaxsiy manfaatga asoslanadi, ijtimoiy-gumanistik model esa birdamlik va adolat tamoyillariga tayanadi. Shu bilan birga, hatto bozor kuchlari ham inson omilini inkor eta olmaydi, aks holda tizim barqarorligini yo'qotadi.

Daromadlar tengsizligi, raqamli qaramlik va insonlar o'rtasidagi ishonchning pasayishi — bularning barchasi inson qadriyati kapital qiymat bilan o'lchanayotgan bozor yo'naltirilgan iqtisodiyotning oqibatlaridir. Shunga qaramay, ijobiy o'zgarishlar ham mavjud: bilim iqtisodiyotining rivojlanishi, korporativ ijtimoiy mas'uliyatning ortishi, etika va barqaror rivojlanishga e'tibor kuchayib borayotgani iqtisodiyotga nisbatan insonparvar yondashuvga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu nuqtayi nazardan, Amartya Senning erkinlik va inson qadr-qimmatini haqidagi g'oyalari tobora dolzarbroq bo'lib bormoqda. Iqtisodiy taraqqiyot jamiyat qancha mahsulot va xizmat ishlab chiqargani bilan emas, balki insonlarning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, shaxsiy rivojlanish va munosib hayot kechirish imkoniyatlarini qanchalik yaratib bera olgani bilan baholanishi kerak (3-rasm).



3-rasm. Iqtisodiy o'sish va inson qadriyati o'rtasidagi nomutanosiblik

Grafik 1950–2030-yillar oralig'ida iqtisodiy samaradorlikning o'sishi bilan bir vaqtda inson qadriyatlarining izchil pasayib borayotganini ko'rsatadi. 1950-yillarda inson qadriyatlari 90% darajada bo'lgan bo'lsa, iqtisodiy samaradorlik atigi 40% atrofida edi. Biroq vaqt o'tishi bilan iqtisodiy samaradorlik barqaror ko'tarilib, 2030-yilga kelib 95% ga yetmoqda, inson qadriyatlari esa aksincha 40% darajagacha kamaymoqda. Ushbu trend modernizatsiya, texnologik taraqqiyot va bozor mexanizmlarining keskin kuchayishi sharoitida jamiyatning axloqiy, madaniy va ijtimoiy birdamlik elementlarining sustlashuvi bilan izohlanadi. Grafikda aks etgan nomutanosiblik iqtisodiy o'sishning inson omili hisobiga amalga oshayotganini, resurslar taqsimoti va ijtimoiy adolat mezonlari izdan chiqayotganini ko'rsatadi. Bu holat barqaror rivojlanish konsepsiyasida inson qadriyatlari iqtisodiy samaradorlik bilan uyg'unlashishi kerakligi haqidagi ilmiy pozitsiyani yana bir bor tasdiqlaydi. Demak, iqtisodiy yutuqlar insoniylikning zaiflashuvi evaziga emas, balki uni qo'llab-quvvatlagan holda amalga oshirilishi zarur.

Shuning uchun bugungi iqtisodiyot ikki yo'lning o'rtasida turibdi: yoki har qanday narx evaziga kengayishni davom ettiradi, yoki o'z maqsadlarini qayta ko'rib chiqib, insonni tizimning markaziga qo'yadi. Haqiqiy taraqqiyot faqat samaradorlik va insonparvarlik, foyda va axloq, rivojlanish va qadr-qimmat o'rtasida muvozanat bo'lgandagina amalga oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Zamonaviy iqtisodiyot yuksak natijalarga erishgan bo'lsa-da, asta-sekin u insoniyatga xizmat qilish degan asl maqsadidan uzoqlashib bormoqda. Pul va samaradorlikka asoslangan dunyo taraqqiyotning haqiqiy manbasini — inson qadr-qimmatini, erkinligi va jamiyatning ma'naviy poydevorini — yo'qotish xavfi ostida qoldirmoqda. Adam Smitdan Yuval Hararigacha bo'lgan iqtisodiy tafakkur shuni ko'rsatadiki, axloqiy mezonlarsiz iqtisodiyot bo'sh va ma'nosiz shaklga aylanadi. Tizim insonni emas, resursni ko'rganda u insoniyatdan uzoqlashishni boshlaydi.

Haqiqiy taraqqiyot faqat insoniy qadriyatlar muvaffaqiyat mezoniga aylanganda ro'y beradi. Kelajak iqtisodiyoti texnologiyalar bilan rivojlanadi, ammo bu faqat insonparvarlik tamoyillari, moddiyat bilan ma'naviyat, foyda bilan vijdon uyg'unlashgandagina barqaror o'sish va chin insoniy jamiyatni yaratadi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Smith, A. (1759). The Theory of Moral Sentiments. London.
2. Marx, K. (1844). Ökonomisch-philosophische Manuskripte.
3. Fromm, E. (1976). To Have or To Be?. New York: Harper & Row.



4. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford: Oxford University Press.
5. Maslow, A. (1954). *Motivation and Personality*. New York: Harper & Brothers.
6. Polanyi, K. (1944). *The Great Transformation: The Political and Economic Origins of Our Time*. New York: Rinehart.
7. Piketty, T. (2013). *Le Capital au XXI^e siècle*. Paris: Éditions du Seuil.
8. Schumpeter, J. (1942). *Capitalism, Socialism and Democracy*. New York: Harper & Brothers.
9. Fukuyama, F. (1995). *Trust: The Social Virtues and the Creation of Prosperity*. New York: Free Press.
10. Sennett, R. (1998). *The Corrosion of Character: The Personal Consequences of Work in the New Capitalism*. New York: W.W. Norton & Company.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100